

**XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING BUGUNGI KUNDAGI
AHAMIYATI**

**Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti 3-kurs talabalari**

Eshonqulova Yulduz Olimjon qizi

olimjonovnay@gmail.com

Boyqorayev Samadjon Ahmajonovich

Ahmedjonovichsamadjonboyqorayev024@gmail.com

Ergasheva Rayhona Nurulla qizi

ergashovarayhona9@gmail.com

A'zimov Oybek

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalqaro baholash dasturlari, PISA testlari o'quvchilarning haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va mulohazaga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: PISA, ta'lim, tizim, xalqaro baholash, soha, taraqqiyot, tashkilot, monitoring, tadqiqot, malaka,

Ta'lim sifatini baholash va xalqaro darajada solishtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Jahon hamjamiyati ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda xalqaro baholash dasturlariga tayanadi. Bu dasturlar o'quvchilarning bilim darajasi va malakasini turli davlatlar miqyosida o'lchash imkonini beradi.

Test Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan konsorsiumda, milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. Tadqiqotda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlar, shuningdek, OECD bilan hamkorlik aloqalari bo'lgan davlatlar ishtirok etadi

PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo'lib, u turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta'lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi. 2000-2015-yillar oralig'ida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha bugungi kunda Sharqiy Osiyoda —

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 05. May 2025

Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada — Finlandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o‘rta ta’lim tizimi yaxshi rivojlangan.

Xalqaro baholash dasturlari ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim vositadir. Eng keng tarqalgan dasturlar qatoriga PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) kiradi. Bu dasturlar nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini, balki ularning mantiqiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini ham baholaydi.

PISA dasturi har uch yilda bir marta o‘tkazilib, 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, o‘qish va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim darajasini aniqlaydi. Bu dastur ta’lim natijalarini iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lash imkonini beradi. PISA natijalari davlatlarning ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi.

TIMSS dasturi to‘rt yilda bir marta o‘tkazilib, 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha tayyorgarlik darajasini baholaydi. Dastur o‘qitish metodikalarini tahlil qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. TIMSS natijalari matematika va tabiiy fanlar ta’limida metodik yangiliklarni joriy etishda ko‘maklashadi.

Ushbu tadqiqot ilk marotaba 1995-yildan buyon amalga oshirila boshlangan. 24 yillik faoliyati davomida ushbu tadqiqotda ishtirok etayotgan mamlakatlar soni ortib bormoqda. Tadqiqot, Boston kollejidagi xalqaro o‘qitish markazi tomonidan tegishli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda boshqarib kelinadi.

TIMSS-2019 tadqiqotning 7-davriyligida 60 dan ortiq mamlakat va iqtisodiyotlar ishtirok etib, mazkur davlatlarda tahsil olayotgan 600 mingga yaqin o‘quvchilarning matematik va tabiiy-ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlari baholandi. — deya xabar bermoqda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi matbuot xizmati.

Xalqaro tadqiqotning natijalari haqidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tadigan bo‘lsak, unda tadqiqotda qatnashgan davlatlar kesimida 4 va 8-sinflar hamda matematika va tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi natijalar alohida tahlil qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Ta’kidlab o‘tilgan to‘rtala yo‘nalish bo‘yicha ham Singapur davlati etakchi o‘rinni egallagan.

e’lon qilingan natijalarga ko‘ra, matematika bo‘yicha Singapurning 4-sinf o‘quvchilari eng yuqori 625 ball, 8-sinf o‘quvchilari esa 616 ball bilan 1-o‘rindan joy oldi. Singapurdan keyingi o‘rinlarda Gonkong 602 ball, Janubiy Koreya 600 ball, Xitoy

Taypey 599 ball va Yaponiya 593 ball bilan joy egallagan bo'lsa, eng past natijani Marokash (383 ball), Quvayt (383 ball), Janubiy Afrika (374 ball), Pokiston (328 ball) va filippinlik (297 ball) o'quvchilar qayd etishgan.

Tabiiy-ilmiy yo'nalish bo'yicha Singapurning 4-sinf o'quvchilari eng yuqori natijani 595 ball, 8-sinf o'quvchilari esa 608 ball qayd etib, bu yo'nalishda ham dunyoda etakchi ekanliklarini yana bir karra isbotlab berdi.

Har to'rt yilda o'tkaziladigan TIMSS dasturining navbatdagi tadqiqotida O'zbekistonning ishtirokini ta'minlash bo'yicha Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va IEA tashkiloti o'rtasida olib borilgan muhokamalar natijasida, 2023-yilda bo'lib o'tadigan tadqiqotda ishtirok etish bo'yicha dastlabki kelishuvga erishilgan bo'lib, hozirgi kunda tadqiqotda qatnashishning o'ziga xos jihatlari muhokama qilinmoqda.

2021-yil fevral oyida o'tkaziladigan Milliy loyiha koordinatorlarining uchrashuvida IEA tashkilotining taklifiga binoan Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi vakillari ham ishtirok etishi rejalashtirilgan.

PIRLS dasturi boshlang'ich ta'limning ilk bosqichidagi (4-sinf) o'quvchilarning o'qish savodxonligini aniqlashga qaratilgan. U ta'limning ilk bosqichidagi savodxonlik darajasini xalqaro miqyosda solishtirish imkonini beradi. PIRLS natijalari ta'limning dastlabki bosqichidagi o'qish ko'nikmalarini mustahkamlash yo'nalishida tahliliy ma'lumotlar beradi.

Xalqaro baholash dasturlarining o'ziga xos jihatlardan biri ularning davlatlararo taqqoslash imkoniyatini berishidir. Bu dasturlar o'quvchilarning kognitiv va funksional savodxonlik darajasini aniqlash orqali ta'lim tizimining samaradorligini ko'rsatadi. Shuningdek, dasturlar natijalaridan foydalanish davlatlarning ta'lim siyosatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro baholash dasturlari davlatlar uchun ta'lim sifatini baholashda muhim vositadir. Ular orqali davlatlar o'z ta'lim tizimini takomillashtirish va xalqaro tajribadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xalqaro baholash natijalari ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirish va o'qituvchilarning malakasini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi

Baholash natijalari ta'lim siyosatini ishlab chiqishda va islohotlarni amalga oshirishda ishonchli ma'lumot manbai hisoblanadi. Davlatlar natijalarni tahlil qilib, ta'lim strategiyalarini qayta ko'rib chiqadilar.

Xalqaro baholash dasturlari ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan usullar va yondashuvlarni tahlil qilish imkonini beradi. Shu orqali muvaffaqiyatli davlatlarning tajribasi o'rganilib, ilg'or metodikalar joriy etiladi.

Baholash natijalari asosida o'qituvchilarning malakasini oshirish va dars metodikasini takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu o'quv jarayonining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro baholash natijalari ta'lim va iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Yaxshi natijalar malakali kadrlar tayyorlash va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, xalqaro baholash dasturlari davlatlarga ta'lim tizimini obyektiv baholash, kamchiliklarni aniqlash va o'zgarishlar kiritish imkoniyatini beradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy talablar asosida raqobatbardosh bilimli yoshlarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD. (2023). PISA 2022 natijalari. Parij: OECD nashriyoti.
2. IEA. (2022). TIMSS 2021 matematika va tabiiy fanlar bo'yicha xalqaro natijalar. Amsterdam: IEA.
3. IEA. (2021). PIRLS 2021 o'qish savodxonligi bo'yicha xalqaro natijalar. Amsterdam: IEA.
4. Schleicher, A. (2019). Jahon darajasi: XXI asr maktab tizimini qurish. OECD nashriyoti.
5. Mullis, I. V. S., & Martin, M. O. (2020). TIMSS 2019 xalqaro natijalari. IEA.
6. Martin, M. O., & Mullis, I. V. S. (2017). PIRLS 2016 o'qish bo'yicha xalqaro natijalar. IEA.

**Research Science and
Innovation House**